



Huquqbuzarlik va huquqiy tartibot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi

E-mail: gulomjonovandu@gmail.com

Andijon davlat universiteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

1-kurs talabasi: **Mamarejabov Davronbek Elmurod o'g'li**

Jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, huquqiy tartibotning mustahkamligi bilan belgilanadi. Huquqiy tartibot qonunlarga rioya etilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi hamda davlat organlarining qonuniy faoliyati ta'minlangan holatni anglatadi. Huquqbuzarlik esa amaldagi qonun-qoidalarga zid ravishda sodir etilgan xatti-harakat bo'lib, huquqiy tartibotga bevosita tahdid soladi.

Huquqbuzarlik va huquqiy tartibot o'rtasida teskari mutanosib bog'liqlik mavjud. Ya'ni jamiyatda huquqbuzarliklar qancha ko'paysa, huquqiy tartibot shuncha zaiflashadi. Aksincha, qonun ustuvorligi ta'minlangan, huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuqori bo'lgan jamiyatda huquqbuzarliklar kamayadi va huquqiy tartibot mustahkamlanadi.

Huquqbuzarliklarning ko'payishi jamiyatda bir qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Jumladan, fuqarolarning davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchi pasayadi, ijtimoiy adolat tamoyillari buziladi, huquqiy nihilizm kuchayadi. Bu holat esa huquqiy tartibotning izdan chiqishiga, qonunlarga befarqlik bilan qarashga sabab bo'ladi.

Huquqiy tartibotning mustahkamligi huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Qonunlarning aniq va tushunarli bo'lishi, jazolarning muqarrarliligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi huquqbuzarliklar sonini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholining huquqiy ongini yuksaltirish, yoshlar orasida huquqiy tarbiya ishlarini kuchaytirish huquqiy tartibotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda huquqbuzarliklar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning ko'payishi



jamiyatda huquqiy tartibotning buzilishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etilishiga hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchning susayishiga olib keladi. Shu bois huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, ularning jamiyat hayotiga ta'siri va oldini olish mexanizmlarini tahlil qilish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Globalashuv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi huquqbuzarliklarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu holat amaldagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, profilaktik chora-tadbirlarni ilmiy asosda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida faqat jazoga asoslangan yondashuv yetarli samara bermayotgani amaliyotda kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks va tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning vujudga kelish omillari, ularning jamiyatga ta'siri hamda oldini olish choralari tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Huquqbuzarliklar tushunchasi o'zi nima? Bu masalada fikr yuritishimiz uchun albatta, yuridik terminlardan ko'proq foydalangan holda bu mavzuni kengroq yoritishga, hamda jamiyatning barcha qatlamiga o'zlari tushinadigan darajada yoritib berishga harakat qilaman. Huquqbuzarlik yuridik termenining o'ziga to'xtaladigan bo'lsam.

Huquqbuzarlik tushunchasi ikki qismdan: "huquq" va "buzish" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib lug'aviy jihatdan belgilangan huquqiy normalarni buzish, qonun bilan qo'riqlanadigan tartibga amal qilmaslik degan ma'nolarni anglatadi.

Yuridik nuqtai nazardan huquqbuzarlik-bu huquq subyekti (shaxs) tomonidan sodir etilgan amaldagi huquq normalariga zid bo'lgan, jamiyatdagi zarar yetkazadigan aybli va ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir.

Huquqbuzarlikning asosiy lug'aviy va huquqiy belgilari

Huquqqa zidlik: Qonunda belgilangan taqiqlarni buzish yoki majburiyatlarni bajarmaslik. Ayblilik (aybning mavjudligi) Huquqbuzarlik shaxsning qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan harakati bo'lishi kerak. Ijtimoiy xavflilik (yoki zarar yetkazish) Jamiyatga, davlatga yoki shaxsga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazadi yoki yetkazish xavfini



tug'diradi. Javobgarlik belgilanganligi. Bu harakat uchun qonunda huquqiy javobgarlik (ma'muriy, jinoiy, fuqaroviy va intizomiy) belgilangan bo'ladi. Bugungi kunda sodir bo'layotgan huquqbuzarliklarni bir necha asosiy yo'nalishlarga ajratib ko'rsatish mumkin. Quyidagilar eng ko'p uchrayotganlari hisoblanadi:

Ma'muriy huquqbuzarliklar:

- Yo'l harakati qoidalarini buzish (tezlikni oshirish, svetoforga amal qilmaslik);
- Jamoat joylarida tartibni buzish;
- Spirtli ichimlik iste'mol qilib jamoatga chiqish;
- Mayda bezorilik.

Bu kabi huquqbuzarliklar bugungi kunda ko'lab davlatlarda sodir bo'layotgan barchamizga ma'lum. Bu turdagi huquqbuzarliklar yoshlar o'rtasida keng ommalashgan va tez-tez ular o'rtasida sodir etilmoqda. Aytaylik "yo'l harakati qoidalarini buzish" bu ko'ngilsiz voqealar ortida loqaydlik, beparvolik kabi hislatlar natijasida kelib chiqadigan huquqbuzarliklardir. "Jamoat joylarida tartibni buzish", "Spirtli ichimlik iste'mol qilish", "Mayda bezorilik" kabi huquqbuzarliklar ham shular jumlasidandir. Bundan tashqari

Jinoyat huquqbuzarliklari:

- O'g'rilik, talonchilik;
- Firibgarlik (ayniqsa onlayn firibgarlik);
- Tan jarohati yetkazish;
- Giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar.

Bu jinoyatlar zahirida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yuqorida sanab o'tilgan barcha jinoyatlar ancha jiddiy jinoyatlar hisoblanadi bunga asosiy sabab esa oila muhiti bilan bevosita bog'liq.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar:

- Pora berish va pora olish;
- Mansab vakolatini suiiste'mol qilish;
- Qonunga xilof ravishda imtiyozlar yaratish.

Bu huquqbuzarlik ham anchagina dolzarb mavzular qatoriga kiradi. Negaki bu illat davrlar mobaynida ildiz otib kelgan. Shu holat bilan bog'liq ko'plab hodisalar kuzatilgan. Sir



emas shu kabi holatlar O‘zbekiston Respublikasida ham mansab vakolatlarin suiiste’mol qilish,pora berish va uni olish holatlari bo‘lib turadi hattoki bu holat dunyoning rivojlangan davlatlarida ham uchraydi. Bu turdagi huquqbuzarliklarga chek qo‘yish va oldini olish kabi masalalarga tegishli davlat organlari ma’suldirlar.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarlik va huquqiy tartibot bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Huquqbuzarliklar huquqiy tartibotga putur yetkazsa, mustahkam huquqiy tartibot esa huquqbuzarliklarning oldini olishda asosiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.